

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANINI O'QITISHDA INNOVATSION SAMARADORLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

*Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi
6-umum ta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi
Uzoqova Kamola Miskinovna*

Annotatsiya: ushbu maqolada Umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda innovatsion samaradorlikning o'rni va ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim, metodlar, kimyoni hayotda qo'llay olish.

Mustaqil O'zbekistonning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida to'laligicha zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadi yotadi. Zero, yurtimiz jahon ta'lim talablariga tenglashayotgan bir sharoitda zamonaviy didaktik vositalar bilan boyitish, davr talablariga mos keladigan darsliklar bilan ta'minlashdan tashqari, o'qitish jarayoning samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogic texnologiyalarning muhim ahamiyatga egaligini esdan chiqarmaslik zarur. Pedagogik innovatsiyalar deganda, pedagogik yangiliklarini o'rganish, o'zlashtirish, ularni baholash, foydalanish va amaliyotga tadbiq etish tushuniladi. O'z navbatida, pedagogik innovatsiyalarning bir nechta turi mavjud: modifikatsiyalashgan, tuzatish kirituvchi, lokal, modulli, tizimli va boshqalar. Biroq pedagogik innovatsiyalarning ko'proq umumlashgan tasnifi o'zida quyidagi ko'rinishlarni aks ettiradi:

- 1) Ta'lim va tarbiya maqsadi va vazifalari hamda mazmuniga doir innovatsiyalar;
- 2) O'quv-tarbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnologiyasi doir innovatsiyalar;
- 3) O'quv-tarbiya jarayonini tashkill ettirishga doir innovatsiyalar;

Mazkur pedagogik innovatsiyalar va ularning o'ziga xosliklari mutaxassislik, shu jumladan, pedagogik fanlar (pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik texnologiya,

ijtimoiy pedagogika, pedagogika, pedagogik mahorat, kasbiy pedagogika)ni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. O'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish, eng avvalo kutiladigan natija bilan bog'liqlikda o'quv maqsadlarini to'g'ri qo'yishdan boshlanadi. O'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda, asosiy o'rinni ta'limga interfaol usullarni, innovatsion pedagogik texnologiyalarini kiritish va ulardan mohirona foydalanish muhim o'rin tutadi. Zero, an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsalar, rivojlantiruvchi ta'lim mezonlariga muvofiq bilimlarni o'quvchilarning o'zlari mustaqil qidirib topishi, o'rganishi, tahlil qila olishi, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga yo'naltirilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, o'qituvchidan bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni mukammal o'zlashtirish, ulardan dars jarayonida samarali foydalanishni taqozo qiladi. O'qituvchilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko'rishlar lozim, bu o'z navbatida, ta'lim muassasasi rahbarlari va o'quv-uslubiy birlashmalari xodimlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lgan ta'limni rivojlantirishning istiqbol rejalarini tuzishda asosiy e'tiborni o'qituvchilarning u yoki bu asosda ijodiy faoliyat yuritishlari uchun zamin yaratish hamda tushuntirish ishlarini olib borishga qaratishlarini talab etadi. Bu o'qituvchilarning kasbiy qiziqishlari ko'lamini kengaytirishga, metodik adabiyotlarni o'qib o'rganishdan to nazariy pedagogik salohiyatlarni oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Puxta tashkillashtirilgan ilmiy-pedagogik tayyorgarlik ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omillardan bir sanaladi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchilarning faoliyati o'quv materialni bayon qilish, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodni shakllantirish, o'quvchilarni mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. Xulosa o'rnida, O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvni o'ziga xosliklaridan biri o'quv maqsadlariga mos metodlarni tanlab olishdir. O'quv-tarbiya

jarayonini amalga oshirishda innovatsion yondashuvning o‘ziga xosliklaridan yana biri bu kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Maktabda kimyo” 2017yil 10-son
2. „Xalq ta’limi ” jurnali. 2011yil 3-son